



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 19 - may

I-58-85-14-220-K/23

Yangihayot tuman hokimligi

Toshkent tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil birinchi chorak davomidagi faoliyati to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan sudlar faoliyatiga oid axborotni eshitish amaliyotining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-iyuldagi KQ-104-IV-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-107-son qarori va 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha Toshkent tumanlararo ma'muriy sudi faoliyati to'g'risidagi axborotni tinglab, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Toshkent tumanlararo ma'muriy sudi raisi S.Yuldashevning 2023-yil birinchi chorak davomidagi faoliyati to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumanlararo ma'muriy sudi raisi S.Yuldashevga:

"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yilida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish borasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash;

inson huquqlarini himoya qiluvchi sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudda ishlarni ko'rish va hal etishning sifatini oshirish orqali fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

"Inson qadri uchun" g'oyasi asosida adolatli sud qarorlarini qabul qilish orqali fuqarolar va tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash;

fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish;

fuqarolardan kelib tushayotgan har bir murojaatni belgilangan muddatlarda, to'liq va sifatli ko'rib chiqilishini hamda murojaatlardagi dolzarb masalalarni ijobiy hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqilishida aniqlangan qonun buzilishi holatlari ustidan nazorat o'rnatish;

mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va kiritilayotgan yangiliklarning mazmun-mohiyatini aholiga ochiq muloqotlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar, davra suhbatlari va huquqiy targ'ibot ishlari orqali muntazam ravishda yetkazib borish tavsiya etilsin.

3. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashiga Toshkent tumanlararo ma'muriy sudi raisi tomonidan har chorakda axborot kiritib borilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiya (A.Iminoxunov) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi**



X.Inogamov